

ZAMONAVIY ADABIYOTDA NAJMIDDIN KUBRO OBRAZI

Raximova Ruxsora Raximberganovna

UrDU 2-kurs magistranti

Zamonaviy adabiy-badiiy asarlarning tuzilishi, tarkibi, adabiy-tarixiy jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qiladi. Davr adabiyotning ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta'siri, adabiyotning boshqa fan, soha, tarmoqlar bilan aloqadorligini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ayniqsa asl holat va davr silsilasini aniq, lo'nda ta'riflash oson, jo'n ish emas. Aslida ham murakkab hodisalarni, ayniqsa, ular nomoddiy bo'lsa, sodda, barchani birday qanoatlantiradigan tarzda ta'riflab bo'lmaydi. Chunki, har qanday mukammal ta'rif-tavsif ham ularning mohiyatini to'la-to'kis ifoda etolmaydi.

XII – XIII asr musulmon tasavvufining eng yorqin va eng ulug' namoyandasasi, zabardast mutasavvuf, donishmand, olim, vatandoshimiz shayx Najmaddin Kubrodir. Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmaddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Tarixda adabiy janrlarda ro'y bergan yangilanishlar, ijodkorlarning hayot hodisalari va Najmaddin Kubro obrazini yaratish kunimizga qadar yangi-yangi ijtimoiy hayot bog'liqliklari orqali adabiy janrlar, adabiy uslublar orqali ochib berilgan.

Sharq mamlakatlari hayotida katta iz qoldirgan XIII asr Xorazm tarixidagi ijtimoiy-siyosiy holatlar badiiy talqini, mo'g'ul bosqinchilarining Ko'hna Urganchga bostirib kelishi, xonlikdagi ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy-axloqiy muammolar oradan necha asr o'tgan bo'lsa-da, beto'xtov bahslarga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan bo'lsa kerak, Najmaddin Kubro o'zining jonidan kechib bo'lsa ham Vatanini himoya qilish, shu yo'lda jon berish darajasidagi ta'limoti va uning obrazi to'g'risidagi turli tarixiy va adabiy asarlar yaratilgan. Bizga ma'lum bo'lgan Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning asarlari, turli tarixiy esselar asosan tragediya shaklinda berilgan. Zamonamiz yozuvchi va dramaturglari tomonidan XIII asrning ziddiyatlari va kurashlari, Najmaddin Kubro qahramonliklari haqida asarlar paydo bo'la boshladi. Jumladan dramaturg, shoir va tarjimon Omon Matjonning “Najmaddin Kubro”¹ tragediyasini olishimiz mumkin. “Najmaddin Kubro” tragediyasida Shayx Najmaddin Kubroning hayoti, uning o'ylari, tasavvurlari shu darajada go'zal tasvirlanadiki, hattoki oddiy bir o'quvchining o'zi ham uning kim ekanligini anglaydi. Biz fanda Kubroni avliyo olim sifatida bilamiz, shuningdek, ma'lum bir doira kishilar bu haqda ma'lumotga ega. Ushbu tragediya bilan tanishgan oddiy o'quvchiga Najmaddin Kubroning shaxsiyatini shu darajada go'zal tasvirlab beriladiki, uning kim ekanligini, tuyg'ularini, qarashlarini, g'oyalarini o'quvchining butun vujudi ongli ravishda his qiladi.

Albatta, tarixiy, ilmiy asarlarda ham davr o'z ifodasini topadi. Biroq badiiy asarlar ulardan jiddiy farq qilib, davr kishilarining ichki-tashqi dunyosini ko'rsatadi. Zamona

¹ Omon Matjon. Diydor aziz. – Toshkent: Noshir, 2011.

kishilarining turmush tarzi, ularning intilishi, dunyoqarashi, qiziqishi, sevgi-muhabbat, qayg'u-quvonchlari faqat badiiy asarlardagina o'zining aniq ifodasini topadi.

Nadmiddin Kubroning holatlari shunday ekanki, u kishi ba'zan birdan jo'shib, o'zga kayfiyatga kirib, vujudlari balqib ketar ekan, ba'zida esa, xazin va o'ychan, g'oyat kamgap bo'lib qolar ekanlar. Ba'zan bo'lsa, xushchaqchaq va ochiq chehra bilan suhbatga berilar, g'oyat nozik did va o'tkir so'zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho'g' tashlar, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar orqali atrofdagilarni hayratga solarkan. Shayx bag'oyat zukko, salobatli, haybatli kishi bo'lgan. Kechalari aksar bedor o'tirib, ibodat qilib, surunkali Ro'za tutishni odat qilib, ilhomli damlarda xonaqoh hovlisini kezib xushnud sayr etar ekan. Bu o'rinda uning hayotiy bir fikrini aytich alohida ahamiyatga molik. Zero bu zamonaviy adabiyotda kamdan kam uchraydigan faqat asl iligi mustahkam, chinordek asrlar silsilasida bosh ko'tarib turoladigan buyuklarga hosdir, menimcha. Jumladan, u shunday deydi:

Ko'rdimki, eng yaxshi do'st ilm ekan.²

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi. Shahid bo'lganliklari haqidagi ma'lumotni hijriy 710 (1311) yilda yozilgan Rashiddiddin Fazlillohning «Jomeat ul-tavorix» («Tarixlar to'plami») asarida uchratamiz.

“Najmiddin Kubro” tragediyasining nihoyasida Najmiddin Kubro o'z ona tuprog'ini dushmanidan himoya qilish uchun muridlari bilan birgalikda bosqinchilarga qarshikurashayotganini tasvirlar ekan, qahramon tilidan shunday fikrlarni keltiradi: “Vatan bilan birlashmoq barcha e'tiqodlarning olivjanob ibtidosidir! Dema Shayx Najmiddin Kubro o'z vatanini hech qachon, hech qanday sharoitda, hech qanday mukofot va tortiqlar evaziga tark etmaydi! Arzimas joni, umri evaziga Vatanini og'ir soatda yolg'iz qoldirmaydi, tashlamaydi! Hech qachon Ona makon, Ota maskan ustida g'ayur yovlar yalovlarining erkin hilpirashiga yo'l qo'ya olmaydi! Alvidoxoru-zor toptalgan Vatan! Assalom erk tashna, ozod ruh Vatan!”³ deya dushman bayrog'ini sindirib, qo'lida mahkam tutganicha jon taslim etadi. Ko'rinaradiki, asarda Najmiddin Kubro tomonidan aytilgan iltijo, avliyoning ilohiy qudrati va kuchi bilan ishlatgan tilsimi tragediyaning eng muvaffaqiyatli o'rinalidir. Qahramonning jonholatda Ona Vatan haqqi-hurmati uchun iltijo etishidan so'ng, osmonda kuchli guldirash, momaqaldoqlar chaqiladi va Gurganj oldida kumushrang parda paydo bo'lib, shahar darvozasi bosqinchilar uchun ko'rinnmay qolib, g'oyib bo'ladi. Lekin Najmiddin Kubro yurtdoshlari bemalol dushman xatti-harakatini ko'ra olardi. Shu o'rinda yana xoinlik yuzaga keladi. Mo'g'ul qo'shiniga asir tushgan Muhammad Xorazmshohning o'g'li O'zloq shoh xalqiga, yurtiga xiyonat qiladi. Najmiddin Kubro iltijolari tufayli faqatgina xorazmlik odamning ko'ziga ko'rinaradigan qilib, lekin dushman uchun tilsimlangan shahar bosqinchilar tarafga o'tib olgan O'zloq shoh yo'boshchiligida Gurganj darvozasi mo'g'ullarga ochib beriladi. Asarda qo'llanilgan bu kabi ilohiy holatlar, ya'ni dushman

² <https://hikmatlar.uz/quote/26>

³ Omon Matjon. Diydor aziz. – Toshkent: Noshir, 2011.

ko‘zidan yashirilgan shahar darvozasi, sotqinlik tufayli kumushrang pardagi to‘siqning g‘oyib bo‘lishi motivi juda sodda bo‘lgani holida unga teskari ravishda juda ishonarli, jonli va ta’sirchan chiqqan.

“Najmuddin Kubro” tragediyasi qahramoni hayotdagi kishilarga juda o‘xshab ketsa-da, u umumlashtirish asosida yuzaga keladi. Asarda tasvirlangan birgina obrazda yuzlab-minglab kishilarga xos xususiyat va belgilar mujassamlashadi va ulardan Xorazmdagi so‘nggi hayoti o‘ta og‘ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Ayni chog‘da har bir san’atkor ijodkor alohida bir kishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish orqali inson obrazini konkretlashtirib, unga jonlilik, hayotiylik, tabiiylik baxsh etadi va shu asosda emotsionallikka erishib, o‘quvchining hissiyotiga ta’sir qiladi, uni ishontiradi.

Obrazlarning rangbarangligi, estetik boyligi, ko‘p qirraligi bevosita hayot voqeligi bilan bog‘liqdir, albatta. Obrazlarning rang-barangligi konkret tarixiy sharoitdagi kishilar xarakterini haqqoniy tasvirlash natijasida yuzaga kelagan. Bu – muayyan hayotiy voqelikni qahramonning ichki kechinmalari, o‘y-mushohadalar, xatti-harakatlari, qiliq odatlari, muomala-munosabatlari orqali badiiy ifodalangan. Ijodkor qahramonlar qiyofasini yaratayotganida har bir obrazning o‘ziga xos xulq-atvorini ko‘rsatishga intilgan. Chunki adabiy asar qahramoni faqat shu orqali o‘z salobatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy adabiyotda Najmuddin Kubro obrazi necha asrlar silsilasida badiiy adabiyotimizning bosh obrazi bo‘liub qoladi. Zero u o‘z ta’limotida inson omilini birinchi o‘ringa qo‘ygani, talab, sadoqat, ishq, muhabbat, oshiqlikning inson uchun naqadar zarur ekanligi ta’kidlagani ijodkorlar uchun ilhom manbayi bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zamira Is’hoqova. Najmuddin Kubro.–Toshkent: “ABU MATBUOT-KONSALT ”, 2011.
2. Solijon Hasanov. Xorazm ma’nnaviyati darg‘alari. – Toshkent: “Adolat”, 2001.
3. Omon Matjon. Diydor aziz. – Toshkent: Noshir, 2011.
4. Ma’nnaviyat yulduzlari (To‘plovchi va mas’ul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
5. Jumaboy Rahimov. Mardlik va jasorat timsoli.–Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021
6. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. – Toshkent: “Fan”, 1978, 1979.
7. Qur'onov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: “Fan”, 2008.
8. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: “Akadem nashr”, 2010.